XALQ DEPUTATLARI BUXORO SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-fevral VII-5-16-2-42-K/25 Buxoro shahar

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2024-yil yillik ijrosi, budjet parametrlariga kiritilgan o‘zgartirishlar hamda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalarini yo‘naltirish to‘grisida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-28 va 126-147-148-moddalariga asosan Buxoro shahar mahalliy budjetining 2024-yil yillik daromadlari 279,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi, mahalliy budjetdan 358,9 mlrd. so‘m miqdorida xarajatlar amalga oshirildi, shundan 212,5 mlrd. so‘mi yoki 59,1 foizi ijtimoiy xarajatlarga yo‘naltirildi. Buxoro shahar mahalliy budjetining parametrlariga 2024-yil yillikda daromad va xarajatlarga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi hisobotlari axborot uchun qabul qilinsin.

Bundan tashqari, respublika budjetidan maqsadli tadbirlarga qo‘shimcha ajratilgan mablag‘lar, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar hamda viloyat mahalliy budjeti parametrlari doirasida kiritilgan o‘zgartirishlar hisobiga belgilangan tadbirlar o‘z vaqtida moliyalashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-28 va 126-147-148-moddalariga asosan Buxoro shahar mahalliy budjetining 2024-yil yillik ijrosi, budjet parametrlariga kiritilgan o‘zgartirishlar hamda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalarini yo‘naltirish to‘grisidagi hisobotlarini muhokama qilib, Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1 Buxoro shahar hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i X.Yaxyoyevning Buxoro shahar mahalliy budjetining 2024-yil yillik budjet ijrosi budjet daromad va xarajatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi hisoboti 1-2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Buxoro shahar hokimligining Buxoro shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalarini 2-ilovaga muvofiq yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3.Buxoro shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Yaxyoyev:

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida shahar mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarni kiritish;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni shahar mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

4. Buxoro shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Yaxyoyev hamda Buxoro shahar davlat soliq inspeksiyasi (A.Gafurov)ga:

daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini so‘zsiz ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish. Bunda, prognoz rejani har bir soliq turi kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Ma’murov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi Q.Tursunov

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 14-fevraldagi
VII-5-16-2-42-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2024 yil daromadlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

Daromadlar turlari nomi	Tasdiqlangan reja	O‘zgarti-rishlar *	Aniqlangan reja	Amalda ijrosi	Farqi (+,-)	Ijrosi, foizda
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Aylanmadan olinadigan soliq	54 885,0	478,0	55 363,0	55 321,3	-41,7	99,9%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	74 255,1	-335,6	73 919,6	86 500,5	12 580,9	117,0%
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	11 780,0	196,0	11 976,0	13 049,8	1 073,8	109,0%
Oxirigi iste’molchiga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi	19 755,3	4 341,6	24 096,9	18 002,7	-6 094,2	74,7%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 411,0	1 043,2	8 454,2	8 339,5	-114,7	98,6%
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	38 535,0	8 793,0	47 328,0	49 241,3	1 913,3	104,0%
Yuridik shaxslar yer solig‘i	16 169,5	8 807,5	24 977,0	16 046,8	-8 930,2	64,2%
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 652,0	2 475,0	21 127,0	19 838,6	-1 288,4	93,9%

Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	220,0	-151,0	69,0	58,3	-10,7	84,4%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 879,0	-698,0	3 181,0	3 312,2	131,2	104,1%
Davlat boji	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Jarimalar	0,0	0,0	0,0	6 524,9	6 524,9	0,0%
Ijara to‘lovlari	1 545,0	25,8	1 570,8	1 124,1	-446,8	71,6%
Dividendlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Yig‘imlar	0,0	0,0	0,0	12,5	12,5	0,0%
Boshqa tushumlar	0,0	0,0	0,0	2 566,4	2 566,4	0,0%
Daromadlar jami	247 086,9	24 975,6	272 062,5	279 938,8	7 876,3	102,9%

Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boqsharmasining bidirishnomalari asosida mahalliy budjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 14-fevraldagi
VII-5-16-2-42-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2024-yil xarajatlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilari nomi	Tasdiqlangan reja	O‘zgarti-rishlar *	Aniqlangan reja	Amalda ijrosi	Farqi (+,-)	Ijrosi foizda, %
	Buxoro shahri bo‘yicha jami	**325 067,9**	**28 553,9**	**353 621,8**	**358 951,4**	**5 329,6**	**101,5%**
1	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	45 675,4	7 106,1	52 781,5	53 033,8	252,3	100,5%
2	Tibbiyot birlashmasi	115 674,8	8 581,9	124 256,7	124 217,1	-39,6	100,0%
3	Madaniyat bo‘limi	27 062,8	1 330,8	28 393,6	28 605,6	212,0	100,7%
4	Sport bo‘limi	6 279,9	384,1	6 664,1	6 663,5	-0,5	100,0%
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 749,6	533,2	2 282,8	2 278,0	-4,8	99,8%

6	Suv xo‘jaligi tashkilotlari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
7	Bandlik bo‘limi	1 903,0	1 242,5	3 145,5	3 134,4	-11,2	99,6%
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 645,0	1 393,9	4 038,9	4 435,1	396,2	109,8%
9	Soliq bo‘limi	8 909,0	1 212,1	10 121,1	10 159,7	38,7	100,4%
10	Shahar hokimligi	104 120,3	5 941,4	110 061,7	114 551,8	4 490,2	104,1%
-	shundan, "Fuqarolar tashabbusi" jamg‘armasiga o‘tkazilgan mablag‘lar	30 731,7	1 156,0	31 887,7	32 992,8	1 105,1	103,5%
11	Prezident Admistratsiyasiga qarashli tashkilotlar	81,0	-14,0	67,0	66,8	-0,2	99,8%
12	Kengash kotibiyati	347,0	-42,6	304,4	304,4	-0,0	100,0%
13	Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi	6 102,0	879,6	6 981,6	6 978,1	-3,5	100,0%
14	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	4 518,0	5,0	4 523,0	4 522,9	-0,0	100,0%

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 14-fevraldagi
VII-5-16-2-42-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Buxoro shaharining ijtimoiy iqtisodiy muammolarini yechish yuzasidan taklif etilayotgan xarajatlar bo‘yicha MA’LUMOT

mln so‘m

№	Tadbirlar nomi	Yo‘naltirilayotgan mablag‘ miqdori	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi	Ajratiladigan qo‘shimcha mablag‘lar manbaasi
1	Tashabbusli byudjet jamg‘armasiga	1 158,9	Shahar hokimligi	Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
2	Ayollar daftari jamg‘armasiga	100,0	Shahar hokimligi	Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
3	Yoshlar daftari jamg‘armasiga	100,0	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
4	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi 427-sonli qarorlariga asosan Bolalarni sog‘lomlashtirish jamg‘armasiga	100,0	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi PQ-92-sonli qarorlariga Keksalar maslahati guruhi raislarini rag‘batlantirish 2024 yil uchun	62,0	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
6	Hokimlik saqlash bilan bog‘liq xarajatlari	155,0	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan

7	Xalq deputatlari Buxoro shahar kengashining 2023-yil 19-apreldagi VI-90-55-2-42-K/23 sonli qarorining 12 bandida ko‘rsatilgan tadbirlarni davom ettirish xarajatlari	904,0	Tegishli soha tashkilotlari	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
8	Hukumat topshirig‘iga asosan 5 nafar Madaniyat instituti talabalarini kontrakt to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlar	43,2	Madaniyat bo‘limi, shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
9	Buxoro shahrida o‘tkazilgan madaniy va ma’rifiy tadbirlar bilan bog‘liq xarajatlar	100,0	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
10	Buxoro shahar M-37 avtomobil yo‘lini rekonstrksiya qilish uchun taklif etilayotgan yer fondini toifasini o‘zgartirish bilan bog‘liq xarajatlar	85,8	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
11	Viloyat hokimining 2024 yil 4 dekabrdagi 1/619-14 sonli yig‘ilish bayonida berilgan toshriqlarni ijrosini ta’minlash xarajatlariga	51,0	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4102 qarorlariga asosan sektor kotibi hamda hokimlik yuristi uchun qo‘shimcha ustama to‘lovlari	39,3	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
13	Buxoro shahar Sheyxon hamda M.Narshaxiy mahalla fuqarolar yig‘ini hududida istiqomat qiluvchi fuqarolarini toza ichimlik suvi ta’minoti yaxshilash maqsadida zaruriy mahsulotlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar	504,0	Obodonlashtirish boshqarmasi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan

14	Kommunal to‘lovlardan yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq xarajatlar	250,0	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
15	Milliy gvardiya qo‘riqlash boshqarmasidan yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish xarajatlariga	79,0	Shahar hokimligi	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
16	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis senati kengashining KQ-331-sonli qarorining 14-bandiga asosan amalga oshiriladigan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy marifiy va obodonlashtirish tadbirlar bilan bog‘liq xarajatlar uchun***	130,5	Tegishli soha tashkilotlari	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbaalari hisobidan
xxx	**Jami**	**3 862,7**	**xxx**	**xxx**

*** Buxoro shahrida ijtimoiy iqtisodiy madaniy ma’rifiy va obodonlashtirish tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida yo‘naltirilgan mablag‘lar doirasida haqiqiy xarajatga qarab, shahar hokimining farmoyishiga asosan mablag‘ yo‘naltiriladi.